

**FARZANDLARNING RAQAMLI MA'LUMOTLARI: TUSHUNCHASI,
TURLARI VA FUQAROLIK-HUQUQIY TASNIFI**

Sotvoldiyeva Xilolaxon

Toshkent davlat yuridik universiteti

Xalqaro huquq va inson huquqlari yo'nalishi talabasi

E-mail: sotvoldiyevaxilola1408@gmail.com

***Annotatsiya:** Ushbu maqola farzandlarning raqamli ma'lumotlari tushunchasini fuqarolik-huquqiy nuqtai nazardan kompleks tahlil etishga bag'ishlangan. Maqolada bolalarga oid raqamli ma'lumotlarning ilmiy ta'riflari, kelib chiqish manbalari va huquqiy tasnifi o'rganiladi. Tadqiqot doirasida bolalar raqamli ma'lumotlarining to'rtta asosiy turi ajratiladi: ota-onalar tomonidan yaratilgan (sharenting), bola tomonidan mustaqil yaratilgan, uchinchi shaxslar tomonidan to'plangan hamda avtomatik ravishda hosil bo'ladigan texnik ma'lumotlar. Maqolada mazkur ma'lumotlar sezgirlik darajasi, ishlov berish maqsadi va rozilik berish subyektiga ko'ra uchta tasnif mezonida tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, xususan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonun, Oila kodeksi va Konstitutsiya me'yorlari xalqaro standartlar — GDPR va COPPA — bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-huquqiy tadqiqot metodologiyasiga asoslanib, O'zbekiston huquqiy tizimida bolalar raqamli ma'lumotlarini tartibga soluvchi maxsus mexanizmlarni ishlab chiqish zarurligini ilmiy asoslaydi.*

***Kalit so'zlar:** raqamli ma'lumotlar, bolalar huquqlari, sharenting, shaxsiy hayot daxlsizligi, fuqarolik huquqi, GDPR, ma'lumotlarni himoya qilish.*

KIRISH

Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shiddat bilan rivojlanib, inson hayotining barcha sohalari keskin o'zgarishga yuz tutdi va

raqamli dunyo endi kundalik turmushdan ajralmas bo‘lib qoldi. Ushbu o‘zgarish jarayonida eng himoyasiz guruh — bolalar — raqamli makonda tobora faolroq ishtirokchiga, ba‘zan esa o‘z xohish-irodasidan qat’iy nazar bu muhitga tortilgan subyektga aylanmoqda. Bolalarga tegishli raqamli ma’lumotlarni qonuniy tartibga solish masalasi bugungi fuqarolik huquqi fanining eng muhim va chigal yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi, chunki bu soha bolaning shaxsiy hayot daxlsizligi, uning raqamli o‘zlik qiyofasi hamda ota-onalarning nazorat huquqlari o‘rtasidagi nozik muvozanatni saqlashni talab etadi.

Bolalarga oid raqamli ma’lumotlar tushunchasini ilmiy jihatdan asoslash uchun, avvalambor, “raqamli ma’lumotlar” iborasining mohiyati va o‘ziga xos belgilarini aniqlab olish lozim. London Iqtisodiyot maktabi tadqiqotchilari S.Livingstone, M.Stoilova va R.Nandagiri 2019-yilda e’lon qilgan ilmiy ishlarida bolalarga oid raqamli ma’lumotlarni “bola raqamli muhitda amalga oshirgan harakatlari, boshqa foydalanuvchilar bilan o‘zaro munosabatlari va shu muhitdagi mavjudligi davomida yig‘iladigan har xil turdagi axborot majmui” deb izohlagan¹. Ushbu ta’rif raqamli ma’lumotlar tushunchasini keng qamrovda talqin etib, faqat bola tomonidan ongli ravishda yaratilgan ma’lumotlar bilan cheklanmaydi — balki uning raqamli faoliyati jarayonida o‘z-o‘zidan, avtomatik tarzda vujudga keladigan texnik xarakterdagi ma’lumotlarni ham o‘z ichiga qamrab oladi.

Avstraliyalik tadqiqotchilar D.Lupton va B.Williamson bolalarga oid raqamli ma’lumotlar masalasiga yanada kengroq va chuqurroq yondashib, “ma’lumotlashtirilgan bolalikning” (datafied childhood) o‘ziga xos konsepsiyasini ilmiy muomalaga kiritganlar. Ularning fikricha, bola haqidagi ma’lumotlar to‘planishi ona qornidagi homiladorlik davridan boshlanadi va bu uzluksiz jarayon

¹ Livingstone, S., Stoilova, M., & Nandagiri, R. Children’s data and privacy online: Growing up in a digital age. London School of Economics, 2019, p. 12. <https://eprints.lse.ac.uk/101283/>.
SJIF: 5.051

insonning umri bo‘yi to‘xtamasdan davom etib boradi². Lupton va Williamsonning ushbu yondashuvi zamonaviy voqelikda bolaning raqamli shaxsiyati hali u dunyoga kelmasidan oldin — ota-onalarning ijtimoiy tarmoqlardagi e‘lonlari, ultratovush tekshiruv tasvirlari va tibbiy hujjatlar vositasida shakllanib borishini yaqqol namoyon etadi. Bunday holat esa an’anaviy fuqarolik huquqida muomala layoqatining yosh mezoni bilan bog‘liq chegaralanishini yangi bir nuqtayi nazardan qayta ko‘rib chiqish va tahlil qilish zarurligini obyektiv ravishda kun tartibiga qo‘ymoqda.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonunida (O‘RQ-547-son) shaxsga doir ma’lumotlar muayyan jismoniy shaxsni bevosita tavsiflovchi yoki uni aniqlab olish imkonini beruvchi axborot sifatida belgilab qo‘yilgan³. Mazkur qonunda bolalarning raqamli ma’lumotlari mustaqil huquqiy tushuncha sifatida maxsus ajratib ko‘rsatilmagan bo‘lsa-da, bolalar jismoniy shaxs maqomida ushbu qonun tomonidan tartibga solinadigan subyektlar doirasiga kiradi. Shu bilan birga, voyaga yetmaganlarning raqamli makondagi nisbatan himoyasizligi va zaifligini hisobga oladigan bo‘lsak, ularga oid ma’lumotlarni alohida huquqiy kategoriya sifatida belgilash va bu borada maxsus himoya mexanizmlarini ishlab chiqib joriy etish ehtiyoji o‘z-o‘zidan ravshan bo‘lib qoladi.

Xalqaro miqyosda bolalarning raqamli ma’lumotlarini huquqiy tartibga solish ikki yirik model asosida taraqqiy etmoqda. Yevropa Ittifoqining Umumiy ma’lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR) 8-moddasiga ko‘ra, raqamli xizmatlar sohasida 16 yoshga to‘lmagan bolalarning shaxsiy ma’lumotlarini qayta

² Lupton, D. & Williamson, B. “The datafied child: The dataveillance of children and implications for their rights”. *New Media & Society*, Vol. 19, No. 5, 2017, pp.780–794. <https://doi.org/10.1177/1461444816686328>.

³ O‘zbekiston Respublikasining 02.07.2019-yildagi O‘RQ-547-sonli “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/acts/-4396419>.

ishlash uchun ota-onaning oldindan roziligi majburiy shart sifatida belgilangan. Bunda member-davlatlarga ushbu yosh chegarasini 13 yoshga qadar pasaytirish huquqi tanib berilgan⁴. AQShda 1998-yilda qabul qilingan COPPA (Bolalarning onlayn maxfiyligini himoya qilish to‘g‘risidagi qonun) 13 yoshga to‘lmagan bolalarning internet muhitidagi shaxsiy ma’lumotlarini muhofaza etishga qaratilgan bo‘lib, vab-saytlar va onlayn platformalardan foydalanuvchi bolalarning ma’lumotlarini to‘plashdan oldin ota-onaning tasdiqlangan roziligini olishni majburiy talab sifatida belgilaydi⁵. COPPA qoidalariga 2024-yilda taklif qilingan yangi o‘zgartishlar raqamli texnologiyalarning jadal taraqqiyoti va bolalar ma’lumotlarini yanada ishonchli hamda mustahkam tarzda himoya qilish ehtiyojidan kelib chiqqan holda ishlab chiqilgan.

ASOSIY QISM

Bolalarga oid raqamli ma’lumotlarning mohiyatini to‘liq anglash uchun ularni kelib chiqish manbalariga qarab turkumlash ilmiy nuqtayi nazardan katta ahamiyat kasb etadi. Mavjud ilmiy adabiyotlar va xalqaro huquqiy amaliyot tahlilidan kelib chiqib, ushbu ma’lumotlarning bir necha asosiy turini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Birinchi tur — ota-onalar tomonidan yaratilgan raqamli ma’lumotlar bo‘lib, bu hodisa ilmiy adabiyotlarda “sharenting” atamasi bilan yuritiladi. Mazkur atama ingliz tilidagi “share” (ulashish) va “parenting” (ota-onalik) so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Amerikalik huquqshunos Stacey B. Steinberg ushbu tushunchani farzandlari haqidagi ma’lumotlarni ota-onalarning internet muhitida

⁴ Yevropa Ittifoqining Umumiy ma’lumotlarni himoya qilish reglamenti (General Data Protection Regulation – GDPR), 2016/679-son, 2018-yil 25-mayda kuchga kirgan. 8-modda. <https://gdpr-info.eu>.

⁵ AQShning Bolalarning onlayn maxfiyligini himoya qilish to‘g‘risidagi qonuni (Children’s Online Privacy Protection Act – COPPA), 1998-yilda qabul qilingan, 2000-yilda kuchga kirgan. <https://www.ftc.gov/legal-library/browse/rules/childrens-online-privacy-protection-rule-coppa>.

muntazam ravishda tarqatib borish odati sifatida ta'riflagan. Olima shu bilan birga muhim bir jihatni alohida ta'kidlaydiki, bu jarayon orqali bolaning raqamli shaxsiyati u o'z elektron pochta manziliga ega bo'lishidan ancha avval, ota-onasi tomonidan shakllantirib qo'yiladi⁶. Steinbergning ushbu tadqiqoti sharenting hodisasining fuqarolik-huquqiy oqibatlarini ilk bor chuqur va atroflicha tahlil etishga bag'ishlangan asarlardan biri sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Unda ota-onaning farzandi haqidagi ma'lumotlarni onlayn muhitda erkin tarqatish huquqi bilan bolaning shaxsiy hayot daxlsizligiga bo'lgan qonuniy manfaati o'rtasidagi qarama-qarshilik ochiq-oydin namoyon etilgan.

2024-yilda chop etilgan tizimli tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, dunyo bo'ylab ko'pchilik ota-onalar sharenting amaliyoti bilan shug'ullanib, farzandlarining suratlarini, video lavhalarini va shaxsiy hayotiga oid turli tafsilotlarni ijtimoiy tarmoqlarda muntazam ravishda ulashib boradi. Tadqiqotchilar esa bu hodisaning bolalar maxfiyligiga jiddiy zarar yetkazishi mumkinligidan ogoh etishadi — chunki ota-onalar ko'pincha o'zlari sezmasdan farzandlarining joylashuvi yoki kundalik hayot tartibi kabi nozik va muhim ma'lumotlarni ommaga oshkor qilib qo'yishlari ehtimoli mavjud⁷. Bundan tashqari, sharenting amaliyoti bir qator muhim huquqiy va axloqiy savollarni ham kun tartibiga qo'yadi: xususan, bolaning raqamli izi — ya'ni internet makonida uning haqida to'plangan barcha ma'lumotlar — aslida kimga tegishli, va bu ma'lumotlardan kelajakda qanday maqsadlarda foydalanilishi yoki ularning suiiste'mol qilinishi qanchalik ehtimoldan yiroq emasligi masalasi tobora dolzarb tus olmoqda.

⁶ Steinberg, S.B. "Sharenting: Children's Privacy in the Age of Social Media". Emory Law Journal, Vol. 66, No. 4, 2017, pp. 839–884. <https://scholarship.law.ufl.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1796&context=facultypub>.

⁷ Tosuntaş, Ş.B. & Griffiths, M.D. "Sharenting: A systematic review of the empirical literature". Journal of Family Theory & Review, Vol. 16, No. 3, 2024, pp. 525–562. <https://doi.org/10.1016/j.chbr.2025.100871>.

Ota-onalar tomonidan yaratilgan raqamli ma'lumotlar qatoriga quyidagilar kiradi: tug'ilgan kundan boshlab olingan suratlar va video tasvirlar, sog'liq holati hamda jismoniy rivojlanishga oid ijtimoiy tarmoq yozuvlari, ta'lim muassasasi va o'quv yutuqlariga doir ma'lumotlar, oilaviy turmush va kundalik hayot tartibini aks ettiruvchi yozuvlar, shuningdek bolaning joylashuvini aniqlaydigan geolokatsiya ma'lumotlari.

O'zbekiston fuqarolik qonunchiligiga ko'ra, voyaga yetmagan shaxsning qonuniy vakillari sifatida ota-onalar farzandlari nomidan va ularning manfaatlarini ko'zlab turli huquqiy harakatlarni amalga oshirish vakolatiga egadirlar. Biroq ota-onalarning ushbu vakolati raqamli muhitda bolaning shaxsiy hayot daxlsizligi huquqi bilan kesishgan nuqtada jiddiy huquqiy ziddiyat vujudga keladi.

Ikkinchi tur — bola tomonidan bevosita yaratilgan raqamli ma'lumotlar. Raqamli texnologiyalarning hayotning barcha jabhalariga kirib borishi natijasida bolalar borgan sari ilk yoshdan internet va ijtimoiy tarmoqlar olamiga qadam qo'ymoqdalar. Polshalik tadqiqotchi A.Brosch o'z ilmiy ishida zamonaviy bolaning "internetda tug'ilish" deb ataluvchi fenomenini chuqur tahlil etib, bolalarning o'z raqamli profillarini mustaqil yaratishi, ijtimoiy tarmoqlarda faol ishtirok etishi va onlayn kontent ishlab chiqishi orqali katta hajmdagi raqamli ma'lumotlarni o'zlari hosil qilishini ilmiy asoslab bergan⁸. Bola tomonidan mustaqil ravishda yaratilgan raqamli ma'lumotlar tarkibiga quyidagilar kiradi: ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy profil va e'lonlar, onlayn o'yinlar hamda turli ilovalar orqali hosil bo'lgan ma'lumotlar, messenjerlar va chat xabar almashuvlari,

⁸ Brosch, A. "When the child is born into the internet: Sharenting as a growing trend among parents on Facebook." The New Educational Review, Vol. 43, No. 1, 2016, pp. 225–235. file:///C:/Users/HP/Downloads/4-5ff0c006-cd56-4cd1-ba13-b84816881ed6.pdf.pdf.

veb-saytlar va internet forumlarda qoldirilgan izohlar, shuningdek bolaning o‘zi tomonidan ishlab chiqilgan raqamli kontent — video, rasm va musiqa asarlari.

JMIR Pediatrics and Parenting jurnalining 2024-yildagi sonida e‘lon qilingan tadqiqotda bolalarning raqamli shaxsiyatining ikki alohida shakli aniqlab ko‘rsatilgan: ijtimoiy raqamli identifikatsiya va performativ raqamli identifikatsiya. Birinchi shaklda ota-onalar yaqin kishilar — do‘stlar va qarindoshlar bilan ma‘lumot ulashish hamda bolalikning raqamli xotirasini saqlab qolish maqsadida ma‘lumot tarqatadi. Ikkinchi shaklda esa ota-onalar farzandlarining internet muhitidagi obro‘si va ijtimoiy qiyofasini ongli va maqsadli tarzda faol shakllantiradilar⁹. Ushbu tasnif farzandlarga oid raqamli ma‘lumotlarning nafaqat miqdor ko‘lami, balki yaratilish maqsadi va o‘ziga xos tabiati jihatidan ham rang-barang va ko‘p qirrali ekanligini yaqqol namoyon etadi.

Uchinchi tur — uchinchi shaxslar tomonidan to‘plangan raqamli ma‘lumotlar. Bu toifaga ta‘lim muassasalari, tibbiyot tashkilotlari, tijorat korxonalar va davlat idoralari tomonidan bolalar haqida yig‘ilgan axborot kiradi. Zamonaviy raqamli ekotizimda bolalarga oid ma‘lumotlar turli kanallar orqali to‘planib boradi: maktablar elektron jurnal va ta‘lim platformalari vositasida, shifoxonalar elektron tibbiy kartalar orqali, tijorat tashkilotlari esa mobil ilovalar va veb-saytlar orqali bolalar haqidagi ma‘lumotlarni muntazam ravishda to‘playdi. Inglizalik huquqshunos Claire Bessant bu borada muhim bir tamoyilni alohida ta‘kidlaydi: bolalarning “eng yaxshi manfaatlarini” printsipi raqamli muhitda ham so‘zsiz va qat‘iy rioya etilishi lozim bo‘lgan asosiy mezon bo‘lib qolishi zarur¹⁰. Bessant ota-onalarning farzandlari haqidagi ma‘lumotlarni tarqatish huquqi mutlaq

⁹ JMIR Pediatrics and Parenting. “Young Children and the Creation of a Digital Identity on Social Networking Sites: Scoping Review.” JMIR Pediatr Parent, Vol. 7, 2024, e54414. doi:10.2196/54414.

¹⁰ Bessant, C. “Sharentthood and the Best Interests of Children.” International Journal of Children’s Rights, Vol. 29, 2021, pp. 283–309.

va cheksiz bo'lmisligi kerakligini, balki bu huquq bolaning "eng yaxshi manfaatlari" tamoyili bilan muvofiqlashtirilishi va zarur hollarda aynan shu tamoyil orqali cheklanishi lozimligini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

To'rtinchi tur — avtomatik ravishda hosil bo'lgan texnik ma'lumotlar. Bu toifaga bolaning raqamli faoliyati jarayonida o'z-o'zidan, hech qanday ongli harakat talab etmagan holda vujudga keladigan ma'lumotlar kiradi. Xususan, qurilma identifikatorlari (IP-manzillar, MAC-manzillar, cookie fayllar), geolokatsiya ma'lumotlari, vab-saytlarga tashrif tarixi, ilovalardan foydalanish statistikasi hamda biometrik ma'lumotlar — yuz tanish texnologiyasi va ovoz namunalari shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunida shaxsga doir maxsus ma'lumotlar, jumladan jismoniy salomatlikka oid axborot va biometrik ma'lumotlar alohida himoya ostiga olingan. Ushbu huquqiy normalar bolalarning texnik xarakterdagi ma'lumotlarini muhofaza etishda ham Farzandlarning raqamli ma'lumotlarini fuqarolik-huquqiy jihatdan turkumlash uchun turli mezonlarga tayanish mumkin. Birinchi mezon — ma'lumotlarning sezgirlik darajasi bo'yicha tasnif. GDPR ning 9-moddasi shaxsga doir ma'lumotlarning maxsus toifalarini belgilab, ularga umumiy tartibda ishlov berishni taqiqlaydi va faqat qonunda ko'rsatilgan alohida asoslar mavjud bo'lgandagina ruxsat etadi. Ushbu yondashuvni bolalar ma'lumotlariga tatbiq etganda, uch bosqichli tasnif tizimini ajratib ko'rsatish mumkin: birinchisi — oddiy shaxsiy ma'lumotlar, ya'ni ism, tug'ilgan sana, ta'lim muassasasi kabilar; ikkinchisi — maxsus toifadagi ma'lumotlar, jumladan sog'liq holati, diniy e'tiqod va biometrik ko'rsatkichlar; uchinchisi — yuqori xavf darajasidagi ma'lumotlar, xususan geolokatsiya va xulq-atvor profili ma'lumotlari.

UNICEF tomonidan 2021-yilda e’lon qilingan “Bolalar ma’lumotlarini yaxshiroq boshqarish” manifestida bolalarga oid ma’lumotlarning o’ziga xos xususiyatlari maxsus qayd etilgan. Hujjatda ta’kidlanishicha, bolalar ma’lumotlari kattalar ma’lumotlaridan bir qator jihatlari bilan tubdan farqlanadi: bolalar o’z ma’lumotlari ustidan to’liq nazoratni amalga oshira olmaydi; ular doimiy rivojlanish va shakllanish jarayonida bo’lganligi sababli ularning raqamli shaxsiyati o’zgaruvchan xarakter kasb etadi; bundan tashqari, bolalik davrida to’plangan ma’lumotlar kelajakda kattalik davridagi raqamli obro’ga uzoq muddatli va sezilarli ta’sir ko’rsatadi¹¹. Mazkur omillar majmui farzandlarning raqamli ma’lumotlariga nisbatan umumiy tartibdan farqli, alohida va maxsus huquqiy yondashuvni ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish zarurligini ob’ektiy tarzda belgilab beradi.

Ikkinchi mezon — ma’lumotlarni ishlov berish maqsadiga ko’ra tasnif. Ushbu mezon asosida farzandlarning raqamli ma’lumotlarini bir necha guruhga ajratish mumkin: ta’lim va rivojlanish maqsadidagi ma’lumotlar, ya’ni elektron jurnallar va onlayn o’quv platformalari ma’lumotlari; sog’liqni saqlash maqsadidagi ma’lumotlar, jumladan elektron tibbiy yozuvlar va vaksinatsiya ma’lumotlari; ijtimoiy muloqot maqsadidagi ma’lumotlar, xususan ijtimoiy tarmoq profillari va messenger yozishmalari; tijorat maqsadidagi ma’lumotlar, ya’ni onlayn xaridlar va maqsadli reklama uchun to’plangan ma’lumotlar; hamda davlat boshqaruvi maqsadidagi ma’lumotlar — tug’ilish guvohnomasi, passport ma’lumotlari va ta’lim hujjatlari. Har bir maqsad doirasida ma’lumotlarga ishlov

¹¹ UNICEF. “The Case for Better Governance of Children’s Data: A Manifesto.” UNICEF Office of Research – Innocenti, 2021, p. 8. <https://www.unicef-irc.org/publications/1198-the-case-for-better-governance-of-childrens-data-a-manifesto.html>.

berishning huquqiy asosi va qo'llaniladigan himoya mexanizmlari o'zaro farqlanib, alohida tartibga solinadi.

2024-yilda o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalarning aksariyati sharenting amaliyotini foydali deb hisoblab, undan faol foydalanishda davom etmoqda. Biroq shu bilan birga, ushbu amaliyot bilan bog'liq maxfiylik xatarlari va mumkin bo'lgan salbiy oqibatlarni to'liq anglash darajasi ota-onalar o'rtasida hali ham yetarli emas¹². Ushbu tadqiqot bolalar ma'lumotlarining turli tijorat maqsadlarida ishlatilishi xavfi haqida ham jiddiy ogohlantirishlar beradi. Xususan, ota-onalar tomonidan tarqatilgan ma'lumotlar ko'pincha uchinchi shaxslar — reklama kompaniyalari va ma'lumotlar brokerlari qo'lga o'tib, ularning manfaatlari yo'lida foydalanilishi mumkinligi alohida tashvish uyg'otadi.

Uchinchi mezon — ma'lumotlarga ishlov berishda rozilik berish subyektiga ko'ra tasnif. Ushbu mezon farzandlarning raqamli ma'lumotlarini fuqarolik-huquqiy jihatdan eng nozik va murakkab toifaga kiritadi, zero bu yerda bolaning muomala layoqati masalasi bilan uzviy bog'liq huquqiy ziddiyat vujudga keladi. Mazkur mezon bo'yicha uch xil holat ajratib ko'rsatiladi: birinchisi — faqat ota-onaning roziligi asosida ishlov beriladigan ma'lumotlar, bu kichik yoshdagi bolalarga nisbatan qo'llaniladi; ikkinchisi — bola va ota-onaning birgalikdagi roziligi talab etiladigan ma'lumotlar, bu 14-16 yosh oraliqidagi bolalarga tegishli; uchinchisi — bolaning mustaqil roziligi asosida ishlov beriladigan ma'lumotlar, bu esa ayrim yurisdiksiyalarda 16-18 yoshdagi o'smirlarga nisbatan tatbiq etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida har bir shaxsning shaxsiy hayot daxlsizligi, yozishmalar, telefon orqali suhbatlar va boshqa aloqa vositalari orqali uzatiladigan xabarlarning maxfiyligi

¹² Gotwald, B., Gregod, B. & Kowalczyk, M. "Parental Perspectives on Sharenting: Attitudes, Privacy Concerns, and Children's Digital Footprint." *European Research Studies Journal*, Vol. 27, No. 3, 2024, pp. 1242–1250.
SJIF: 5.051

kafolatlangandir¹³. Ushbu konstitutsiyaviy kafolat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan ham to‘liq kuchda qo‘llaniladi. O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 65-moddasida bolaning oilada yashash va tarbiya olish huquqi mustahkamlab qo‘yilgan bo‘lsa, 74-moddasida ota-onalarning farzandlari huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi huquqlari hamda majburiyatlari belgilab berilgan¹⁴. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasining 2008-yilda qabul qilingan “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunida (O‘RQ-139-son) bolaning sha’ni, qadr-qimmati va shaxsiy daxlsizligini himoya qilishga qaratilgan huquqiy mexanizmlar qonuniy asosda mustahkamlab qo‘yilgan¹⁵. Biroq mazkur normativ-huquqiy hujjatlarning hech birida raqamli ma’lumotlar konteksti bevosita va aniq nazarda tutilmagan, bu esa milliy qonunchilikda jiddiy huquqiy bo‘shliq mavjudligini yaqqol ko‘rsatib turadi.

Xalqaro huquqiy asoslar jihatidan BMTning 1989-yilda qabul qilingan Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi zamonaviy raqamli muhitda bolalar huquqlarini himoya qilishning umumiy huquqiy asosini belgilab beradi¹⁶. Konvensiyaning 16-moddasiga binoan, hech bir bolaning shaxsiy hayotiga, oilasiga, turar joyiga yoki yozishmalariga o‘zboshimchalik bilan yoxud qonuni buzgan holda aralashishga yo‘l qo‘yilmaydi. Zamonaviy sharoitda ushbu moddaning qo‘llanish doirasi bolaning onlayn ma’lumotlarini himoya qilishni ham o‘z ichiga olishi mumkin. BMT Bola huquqlari qo‘mitasining 2021-yilda qabul qilingan 25-sonli Umumiy sharhi esa raqamli muhitda bolalar huquqlarini

¹³ O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: Adolat, 2023. – 80 b. <https://lex.uz/docs/-6445145>.

¹⁴ O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi. (1998). O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. (2024-yil 29-oktabrdagi tahriri bilan). <https://lex.uz/docs/104720>.

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasining 2008-yil 7-yanvardagi O‘RQ-139-sonli “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-1296730>.

¹⁶ UN General Assembly. (1989). Convention on the Rights of the Child. United Nations, Treaty Series, vol. 1577, p. 3. <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-rights-child>.

ta'minlash va muhofaza etishga oid batafsil yo'l-yo'riqlarni belgilab bergan muhim xalqaro hujjat hisoblanadi¹⁷. Mazkur hujjatda davlatlardan bolalarga oid raqamli ma'lumotlarni to'plash, saqlash va qayta ishlash jarayonlarining barcha bosqichlarida bolalarning "eng yaxshi manfaatlari" tamoyilini bosh mezon sifatida ustuvor o'ringa qo'yish talab etiladi.

Farzandlarning raqamli ma'lumotlarini boshqarishda ota-onalarning tutgan o'rni fuqarolik huquqi nuqtayi nazaridan alohida muhim ahamiyat kasb etadi. Avstraliyalik tadqiqotchi Tama Leaver bu masalani "mahram kuzatuv" (*intimate surveillance*) konsepsiyasi orqali tahlil etib, ota-onalarning farzandlarini raqamli muhitda kuzatishi va ular haqidagi ma'lumotlarni tarqatishi o'rtasidagi nozik chegarani belgilashga intilgan¹⁸. Leaver shu bilan birga bolaning "unutilish huquqi" doirasida ota-onalar tomonidan tarqatilgan raqamli ma'lumotlarni o'chirish masalasini ham ilmiy muhokamaga olib kiradi. Ushbu masala esa GDPR ning 17-moddasi — ya'ni shaxsiy ma'lumotlarni o'chirish huquqini tartibga soluvchi norma — bilan bevosita bog'liq bo'lib, zamonaviy raqamli huquqning eng dolzarb yo'nalishlaridan birini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunining 3-moddasiga ko'ra, shaxsga doir ma'lumotlar muayyan jismoniy shaxsga tegishli yoki uni aniqlash imkonini beruvchi axborot sifatida ta'riflanadi. Ushbu ta'rifdan kelib chiqib, bolalarning raqamli muhitda hosil bo'lgan barcha turdagi ma'lumotlari — ijtimoiy tarmoqlardagi suratlar, ta'lim platformalaridagi

¹⁷ UN Committee on the Rights of the Child (CRC). (2021). General comment No. 25 (2021) on children's rights in relation to the digital environment. CRC/C/GC/25. <https://undocs.org/en/CRC/C/GC/25>.

¹⁸ Leaver, T. (2020). Balancing privacy: Sharenting, intimate surveillance, and the right to be forgotten. In S. Danby, M. Fler, C. Davidson, & M. Hatzigianni (Eds.), *The Routledge Companion to Digital Media and Children* (pp. 235–244). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781351004107-25>.

natijalar, sogʻliq holati haqidagi elektron yozuvlar — qonuniy himoya ostida boʻlishi lozim.

Biroq amaldagi qonunchilikda bolalar maʼlumotlarining oʻziga xos xususiyatlari, ularni ota-onalar tomonidan boshqarish tartibi va bolaning oʻz maʼlumotlari ustidan nazorat huquqi kabi muhim masalalar hanuz toʻliq va yetarli darajada tartibga solinmagan holda qolmoqda.

Sharenting hodisasining global koʻlami toʻgʻrisida K.Kopecky va hammuallif tadqiqotchilar tomonidan oʻtkazilgan xalqaro tadqiqot shuni koʻrsatadiki, ota-onalar tomonidan onlayn muhitda tarqatilgan bolalarga oid maʼlumotlar kiberjinoyatchilik, shaxsiy maʼlumotlarni oʻgʻirlash va boshqa internet xavflarining yuzaga kelishi uchun qulay sharoit yaratib berishi mumkin¹⁹. Ushbu tadqiqot Chexiya va Ispaniya misolida sharenting hodisasining turli madaniy muhitlarda qanday tarzda namoyon boʻlishini qiyosiy tahlil etib, dunyo miqyosida yagona va universal huquqiy himoya mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligini ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Zamonaviy huquqiy amaliyotda AQShning alohida shtatlar darajasida bolalarning raqamli maʼlumotlarini himoya qilishga yoʻnaltirilgan yangi qonunchilik aktlari faol ravishda qabul qilinmoqda. Xususan, 2024-2025-yillarda Kaliforniya, Konnektikut, Florida, Jorjiya, Luiziana, Nyu-York, Tennessi va Yuta shtatlari ijtimoiy tarmoqlarda bolalarga oid maʼlumotlarni toʻplash, ulardan foydalanish va tarqatishni maxsus tartibga soluvchi qonunlarni qabul qildi²⁰. Ushbu qonunlarning koʻpchiligida yosh tekshirish mexanizmlari, ota-onalarning

¹⁹ Kopecky, K., Sztokowski, R., Aznar-Díaz, I., & Romero-Rodríguez, J. M. (2020). The phenomenon of sharenting and its risks in the online environment. *Children and Youth Services Review*, 110, 104819. <https://doi.org/10.1016/j.childyouth.2020.104819>

²⁰ Mayer Brown. (2025, February). Children's online privacy: Recent actions by the states and the FTC. <https://www.mayerbrown.com/en/perspectives-events/publications/2025/02/childrens-online-privacy-recent-actions-by-the-states-and-the-ftc>

roziligi talabi, maqsadli reklamani cheklash va bolalarning o'z ma'lumotlarini o'chirish huquqi kabi muhim normalar mustahkamlab qo'yilgan. Mazkur tendensiya esa bolalar raqamli ma'lumotlarini himoya qilish sohasidagi qonunchilik butun dunyo bo'ylab jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotganidan yaqqol dalolat beradi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, farzandlarning raqamli ma'lumotlari zamonaviy fuqarolik huquqining yangi va tobora muhim kategoriyasi sifatida mustaqil shakllanib bormoqda. Ushbu tushuncha an'anaviy shaxsiy ma'lumotlar doirasidan ancha kengayib, bolaning raqamli shaxsiyati, uning onlayn mavjudligi va raqamli izi (digital footprint) kabi yangi huquqiy hodisalarni ham qamrab olmoqda. Farzandlarning raqamli ma'lumotlarini kelib chiqish manbalariga ko'ra to'rt turga — ota-onalar tomonidan yaratilgan, bola tomonidan mustaqil yaratilgan, uchinchi shaxslar tomonidan to'plangan va avtomatik ravishda hosil bo'lgan texnik ma'lumotlar — ajratish mumkin. Shu bilan birga, ularni sezgirlik darajasiga ko'ra uch bosqichga, ishlov berish maqsadiga ko'ra esa besh guruhga turkumlash ilmiy jihatdan asosli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilishning umumiy doirasini belgilagan bo'lsa-da, farzandlarning raqamli ma'lumotlarini alohida tartibga solish mexanizmlari hali to'liq ishlab chiqilmagan. Shu boisdan, O'zbekiston huquqiy tizimida bolalar raqamli ma'lumotlarining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq inobatga olgan holda maxsus tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Livingstone, S., Stoilova, M., & Nandagiri, R. Children’s data and privacy online: Growing up in a digital age. London School of Economics, 2019, p. 12. <https://eprints.lse.ac.uk/101283/>.

2. Lupton, D. & Williamson, B. “The datafied child: The dataveillance of children and implications for their rights”. New Media & Society, Vol. 19, No. 5, 2017, pp.780–794. <https://doi.org/10.1177/1461444816686328>.

3. O‘zbekiston Respublikasining 02.07.2019-yildagi O‘RQ-547-sonli “Shaxsga doir ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni. <https://lex.uz/acts/-4396419>.

4. Yevropa Ittifoqining Umumiy ma’lumotlarni himoya qilish reglamenti (General Data Protection Regulation – GDPR), 2016/679-son, 2018-yil 25-mayda kuchga kirgan. 8-modda. <https://gdpr-info.eu>.

5. AQShning Bolalarning onlayn maxfiylikini himoya qilish to‘g‘risidagi qonuni (Children’s Online Privacy Protection Act – COPPA), 1998-yilda qabul qilingan, 2000-yilda kuchga kirgan. <https://www.ftc.gov/legal-library/browse/rules/childrens-online-privacy-protection-rule-coppa>.

6. Steinberg, S.B. “Sharenting: Children’s Privacy in the Age of Social Media”. Emory Law Journal, Vol. 66, No. 4, 2017, pp. 839–884. <https://scholarship.law.ufl.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1796&context=facultypub>.

7. Tosuntaş, Ş.B. & Griffiths, M.D. “Sharenting: A systematic review of the empirical literature”. Journal of Family Theory & Review, Vol. 16, No. 3, 2024, pp. 525–562. <https://doi.org/10.1016/j.chbr.2025.100871>.

8. Brosch, A. “When the child is born into the internet: Sharenting as a growing trend among parents on Facebook.” *The New Educational Review*, Vol. 43, No. 1, 2016, pp. 225–235. <file:///C:/Users/HP/Downloads/4-5ff0c006-cd56-4cd1-ba13-b84816881ed6.pdf>.

9. JMIR Pediatrics and Parenting. “Young Children and the Creation of a Digital Identity on Social Networking Sites: Scoping Review.” *JMIR Pediatr Parent*, Vol. 7, 2024, e54414. doi:10.2196/54414.

10. Bessant, C. “Sharenthood and the Best Interests of Children.” *International Journal of Children’s Rights*, Vol. 29, 2021, pp. 283–309.

11. UNICEF. “The Case for Better Governance of Children’s Data: A Manifesto.” UNICEF Office of Research – Innocenti, 2021, p. 8. <https://www.unicef-irc.org/publications/1198-the-case-for-better-governance-of-childrens-data-a-manifesto.html>.

12. Gotwald, B., Gregod, B. & Kowalczyk, M. “Parental Perspectives on Sharenting: Attitudes, Privacy Concerns, and Children’s Digital Footprint.” *European Research Studies Journal*, Vol. 27, No. 3, 2024, pp. 1242–1250.

13. Leaver, T. (2020). Balancing privacy: Sharenting, intimate surveillance, and the right to be forgotten. In S. Danby, M. Fler, C. Davidson, & M. Hatzigianni (Eds.), *The Routledge Companion to Digital Media and Children* (pp. 235–244). Routledge. <https://doi.org/10.4324/9781351004107-25>.

14. Kopecky, K., Szotkowski, R., Aznar-Díaz, I., & Romero-Rodríguez, J. M. (2020). The phenomenon of sharenting and its risks in the online environment. *Children and Youth Services Review*, 110, 104819. <https://doi.org/10.1016/j.childyouth.2020.104819>.

15. Mayer Brown. (2025, February). Children's online privacy: Recent actions by the states and the FTC. <https://www.mayerbrown.com/en/perspectives-events/publications/2025/02/childrens-online-privacy-recent-actions-by-the-states-and-the-ftc>.